



**O'ZKIMYOSANOAT**  
AKSIYADORLIK JAMIYATI

2024-yil 19-iyul

# **O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi kimyo sanoat mahsulotlarining 19-iyul sanasidagi savdo yakunlari**

"O'zbekiston Kimyosanoati" aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi o'z savdo maydonchasi orqali tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan kimyo mahsulotlari savdosining 2024-yil 19-iyul sanasidagi yakuni bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etadi.

Joriy yilning 19-iyul kuni "O'zbekiston Kimyosanoati" AJ tizimidagi korxonalar tomonidan O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasi ochiq birja savdolari orqali jami 7588,3 tonna 21 325,2 mln so'mlik mineral o'g'itlar sotildi. O'tgan kuni bu ko'rsatkich past bo'lgan, ya'ni 18-iyul kuni 21 005,9 mln so'mlik 7159,7 tonna mineral o'g'itlar sotilgan.

Birja savdolariga tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan ammiakli selitra, karbamid, sulfat ammoniy, ammos, PS-Agro, kaliyli o'g'itlar, superfosfat azot-fosforli o'g'it kabi mahsulotlar qo'yildi. Savdoga qo'yilgan mineral o'g'itlardan ammiakli selitra eng ko'p sotilgan mahsulot bo'lib, sotuvning 49,4 foizini tashkil etdi.

Shuningdek, "O'zbekiston Kimyosanoati" AJ tizimidagi korxonalar tomonidan mineral o'g'itlardan tashqari bugungi kun sanoatida keng qo'llanilayotgan PVX, kaustik soda, formalin, natriy gipoxlorid, kalsinatsiyalangan soda, azot kislotasi va suyuq kislorod kabi bir qator kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Ular ham doimiy ravishda birja savdolariga qo'yib boriladi.

19-iyul kuni jami 6600,9 mln so'mlik boshqa turdagi kimyo mahsulotlar sotildi. O'tgan kuni bu ko'rsatkich yuqori bo'lgan, ya'ni 18-iyul kuni 6653,7 mln so'mlik boshqa turdagi kimyo mahsulotlar sotilgan. Sotuvning asosiy qismini, ya'ni 54,4 foizini kaltsinatsiyalangan soda mahsuloti tashkil etdi.

O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi "O'zbekiston Kimyosanoati" AJ savdo maydonchasi orqali tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar savdosi bo'yicha barcha ma'lumotlarni [www.uzkimyosanoat.uz](http://www.uzkimyosanoat.uz) rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi <https://t.me/uzkimyosanoat> va <https://www.facebook.com/uzkimyosanoat/> rasmiy sahifalari orqali olishingiz mumkin.

Mahsulotlarni yetkazib berish va ularning sifat darajasi bo'yicha taklif va e'tirozlaringiz bo'lsa, (78) 140-74-48 ishonch telefon raqamiga murojaat qilishingiz mumkin.

**"O'zbekiston Kimyosanoati" AJ Matbuot xizmati**

**source:**

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/birja20240719>